




## Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyun)



Dastlabki maʼlumotlar boʼyicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 6245,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʼlib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 94,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʼgʼri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (69,5 %) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʼyicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi oʼtgan yilning tegishli davriga nisbatan togʼ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 94,0 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 101,9 % ni, elektr, gaz, bug' bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashda – 94,0 % ni va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 48,0 % ni tashkil etdi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʼzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʼrsatkichdir.




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 700,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,2 % ini tashkil etdi.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmi – 2,4 martani, gaz kondensati – 129,8 % ni, neft qazib olish – 132,1 % ni, qum – 89,8 % ni va chaqiq tosh – 107,1 % ni tashkil etdi.



| Sanoat mahsulotlari        | 2019- yil<br>yanvar-iyun | 2020- yil<br>yanvar-iyun | Farqi<br>+/- |
|----------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------|
| Qum, ming t.               | 49,4                     | 44,4                     | -5,0         |
| Neft, ming t.              | 10,5                     | 13,8                     | 2,5          |
| Tabiiy gaz, mln.<br>kub.m. | 523,1                    | 1267,2                   | 744,1        |
| Gaz kondensati,<br>ming t. | 109,4                    | 142,1                    | 131,7        |
| Chaqiq tosh, ming t.       | 56,6                     | 60,6                     | 4,0          |



### Ishlab chiqaradigan sanoat


2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4335,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 69,5 % ni tashkil etdi.




### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

Oʼtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining ulushi 0,1 % ni (2019-yil yanvar-iyun oylarida – 0,1 %), oʼrta-yuqori texnologiyali – 32,8 % (27,4 %), oʼrta – quyi texnologiyali – 3,7 % (6,6 %), va quyi texnologiyali – 63,4 % (65,9 %) tashkil etdi.

**2019- yil  
yanvar-iyun, % da**



**2020- yil  
yanvar-iyun, % da**




yuqori texnologiyali  
oʼrta-yuqori texnologiyali

quyi texnologiyali  
oʼrta-quyi texnologiyali



## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yumshoq bug`doy va spelta uni – 113,8 % ni, plastmassa quvurlar – 111,5 % ni, kaliy xlorid – 101,8 % ni, polietilen – 103,4 % ni, ip-kalava – 98,6 % ni, paxta tolasi – 89,2 % ni.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari                    | 2019- yil yanvar-iyun | 2020- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|--|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 67,8                  | 77,1                  | 9,3       |
| Plastmassa quvurlari, ming t.          | 2,0                   | 2,3                   | 0,3       |

| Sanoat mahsulotlari          | 2019- yil<br>yanvar-iyun | 2020- yil<br>yanvar-iyun | Farqi<br>+/- |
|------------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------|
| polietilen, ming t.          | 64,8                     | 70,0                     | 5,2          |
| kaliy xlorid, ming t.        | 98,4                     | 100,2                    | 1,8          |
| Ip-kalava, ming t.           | 14,7                     | 14,5                     | -2,0         |
| <b>Paxta tolasi, ming t.</b> | <b>34,6</b>              | <b>30,8</b>              | <b>-3,8</b>  |



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1170,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (18,7 % ini) tashkil etdi).

2020- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 94,0 % tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari                       | 2019- yil<br>yanvar-iyun | 2020- yil<br>yanvar-iyun | Farqi<br>+/- |
|---|--------------------------|--------------------------|--------------|
| <b>Elektroenergiya,<br/>mln.kVt/s</b>     | 6793,0                   | 4686,4                   | -2106,6      |
| <b>Issiqlik energiyasi,<br/>ming gkal</b> | 2138,9                   | 1590,3                   | -548,6       |

|                                |   |
|--------------------------------|---|
| <br><small>123RF Stock</small> | <b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,<br/>chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b> |
|--------------------------------|---|

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxo-nalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,6 mldr.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.


Id:1001christandipart.com

|                                |  |
|--------------------------------|--|
| <br><small>123RF Stock</small> | <b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish<br/>va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini<br/>tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish</b> |
|--------------------------------|--|

| Sanoat mahsulotlari   | 2019- yil<br>yanvar-iyun | 2020- yil<br>yanvar-iyun | Farqi<br>+/- |
|---|--------------------------|--------------------------|--------------|
| <b>Oqava suvlarni yo'qotish,<br/>transportirovka qilish va ishlov<br/>berish bo'yicha xizmatlar,<br/>mln.so'm</b> | 3529,6                   | 306,2                    | -3223,4      |

| Sanoat mahsulotlari  | 2019- yil<br>yanvar-iyun | 2020- yil<br>yanvar-iyun | Farqi<br>+/- |
|--|--------------------------|--------------------------|--------------|
| <b>Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm</b>   | 9045,3                   | 15099,2                  | 6053,9       |
| <b>Qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm</b> | 6646,8                   | 10721,6                  | 4078,4       |


O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 161,3 % ga, hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 166,9 martaga oshganligi kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 8,7 % ga pasayish kuzatildi.



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1945,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 101,4 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdag'i ulushi 31,1 % ni tashkil etdi.

#### Oziq-ovqat mahsulotlar



#### Nooziq-ovqat mahsulotlari

2020-yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 59,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 40,4 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 3,3 % ni tashkil etdi.




## 2020-yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan G`uzor tumani 1268,5 mlrd.so`mni, Nishon tumani 1264,5 mird. so`m, Qarshi shahri 1185,5 mird. so`mni tashkil etdi.

|                             | 2020- yil<br>yanvar-iyun<br>mlrd. so`m | Fizik hajm<br>indeksi, % da |
|-----------------------------|--|-----------------------------|
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | <b>6 245,5</b>                         | <b>94,0</b>                 |
| <b>Qarshi sh.</b>           | 1 185,5                                | 99,6                        |
| <b>Shahrisabz sh.</b>       | 122,4                                  | 108,0                       |
| <i>tumanlar:</i>            |  |                             |
| <b>G`uzor</b>               | 1 268,5                                | 101,7                       |
| <b>Dehqonobod</b>           | 254,0                                  | 94,5                        |
| <b>Qamashi</b>              | 194,5                                  | 108,4                       |
| <b>Qarshi t.</b>            | 309,3                                  | 73,9                        |
| <b>Koson</b>                | 342,3                                  | 84,7                        |
| <b>Kitob</b>                | 154,4                                  | 101,5                       |
| <b>Mirishkor</b>            | 173,2                                  | 103,3                       |
| <b>Muborak</b>              | 323,7                                  | 73,9                        |
| <b>Nishon</b>               | 1 264,5                                | 89,4                        |
| <b>Kasbi</b>                | 52,2                                   | 109,7                       |
| <b>Chiroqchi</b>            | 139,6                                  | 107,1                       |

|                      | <b>2020- yil<br/>yanvar-iyun<br/>mlrd. so'm</b> | <b>Fizik hajm<br/>indeksi, % da</b> |
|----------------------|---|-------------------------------------|
| <b>Shahrisabz t.</b> | <b>289,5</b>                                    | <b>101,5</b>                        |
| <b>Yakkabog'</b>     | <b>172,2</b>                                    | <b>97,4</b>                         |

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil choratadbirlar natijasida Kasbi tumanida (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,7%), Qamashi tumanida (108,4 %), Shahrisabz shahrida (108 %), Chiroqchi tumanida (107,1 %), Dehqonobod tumanida (106,8 %), Mirishkor tumanida (103,3 %), Kitob tumanida (101,5 %) va Shahrisabz tumanida (101,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi G`uzor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,3 %), Nishon tumani (20,2 %), Qarshi shahriga (19,0 %), Koson (5,5 %) hamda Muborak (5,2 %) tumanlariga hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Kasbi tumaniga (0,8 %) Shahrisabz shahri (2,0 %) hamda Chiroqchi (2,2 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-iyun oylarida)**

|                             | mlrd. so'm     | Jamiga<br>nisbatan<br>ulushi, % da | 2019- yil<br>yanvar-iyun<br>oylariga<br>nisbatan, % da |
|-----------------------------|----------------|------------------------------------|--|
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | <b>1 945,1</b> | <b>100,0</b>                       | <b>101,4</b>   |
| <b>Qarshi sh.</b>           | 602,6          | 31,0                               | 98,4   |
| <b>Shahrisabz sh.</b>       | 121,7          | 6,3                                | 96,8   |
| <i>tumanlar:</i>            |                |                                    |  |
| <b>G'uzor</b>               | 51,8           | 2,7                                | 103,2  |
| <b>Dehqonobod</b>           | 31,5           | 1,6                                | 106,8  |
| <b>Qamashi</b>              | 97,5           | 5,0                                | 104,4  |
| <b>Qarshi t.</b>            | 90,6           | 4,7                                | 102,6  |
| <b>Koson</b>                | 180,4          | 9,3                                | 90,0   |
| <b>Kitob</b>                | 118,8          | 6,1                                | 103,6  |
| <b>Mirishkor</b>            | 46,8           | 2,4                                | 103,9  |
| <b>Muborak</b>              | 43,6           | 2,2                                | 105,3  |
| <b>Nishon</b>               | 48,0           | 2,5                                | 106,0  |
| <b>Kasbi</b>                | 47,9           | 2,5                                | 97,9   |
| <b>Chiroqchi</b>            | 111,8          | 5,7                                | 104,0  |
| <b>Shahrisabz t.</b>        | 180,9          | 9,3                                | 107,2  |
| <b>Yakkabog'</b>            | 171,1          | 8,8                                | 116,5  |

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atda eng yuqori ko`rsatgich Yakkabog' tumanida (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 116,5 %) ni, Shahrisabz tumanida (107,2 %) ni, Dehqonobod tumanida (106,8 %) ni, Nishon tumanida (106,0 %) ni, Muborak tumanida (105,3 %) ni, Kitob tumanida (103,6 %) ni va Qarshi tumanida (102,6 % ni) tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahri (iste'mol tovarlari hajmida 31,0 %) ni, Koson tumanida (9,3 %) ni, Shahrisabz

tumanida (9,3%) ni, Yakkabog' tumanida (8,8 %) ni va Shahrisabz shahrida (6,3 %) ni tashkil etadi.



### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 879,7 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 14,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqlanishi tahlili Nishon tumanida (8259,3 ming so'm), G'uzor tumanida (6208,8 ming so'm), Qarshi shahrida (4295,1 ming so'm), Muborak tumanida (3720,4 ming so'm) va o'rtacha viloyat darajasi ko'satkichidan (viloyat – 1897,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'satmoqda.



### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish (2020-yil yanvar-iyun oylarida, ming so'm)

|                       | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|-----------------------|---------------------|-----------------------|
| <b>Qarshi sh.</b>     | 4 295,1             | 2 183,4               |
| <b>Shahrisabz sh.</b> | 878,4               | 873,4                 |
| <i>tumanlar:</i>      |                     |                       |
| <b>G'uzor</b>         | 6 208,8             | 253,7                 |
| <b>Dehqonobod</b>     | 1 721,7             | 213,9                 |
| <b>Qamashi</b>        | 715,7               | 358,9                 |
| <b>Qarshi</b>         | 1 245,0             | 364,7                 |
| <b>Koson</b>          | 1 198,2             | 631,4                 |
| <b>Mirishkor</b>      | 1 447,9             | 391,4                 |
| <b>Muborak</b>        | 3 720,4             | 450,5                 |
| <b>Nishon</b>         | 8 259,3             | 313,5                 |


|            | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|------------|---------------------|-----------------------|
| Kasbi      | 243,6               | 265,5                 |
| Chiroqchi  | 338,3               | 271,0                 |
| Shahrisabz | 1 304,6             | 815,0                 |
| Yakkabog'  | 654,1               | 649,9                 |



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi  
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, % da)**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 974,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qamashi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kasbi tumanida (100,0 %), Kitob tumanida (95,3 %), Shahrisabz shahrida (82,6 %), Chiroqchi tumanida (80,3 %), Yakkabog' tumanida (75,4 %), shu bilan birga, eng kichkina ulush Nishon tumanida (3,8 %), G'uzor tumanida (4,5 %), Dehqonobod tumanida (12,2 %) va Muborak tumanida (13,4 %) kuzatildi.







## Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini (2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3655 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 720 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 19,7 %) Qarshi shahriga, 428 tasi (11,7 %) Kitob tumaniga, 325 tasi (8,9 %) Yakkabog' tumaniga, 310 tasi (8,5 %) Shahrisabz shahriga, 294 tasi (8,0 %) Chiroqchi tumaniga, 277 tasi (7,6 %) Qarshi tumaniga, 208 tasi (5,7 %) Qamashi tumaniga to'gri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 462 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 76 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 16,5 %) Qarshi shahrida, 47 tasi (10,2 %) Kitob tumanida, 47 tasi (10,2 %) Shahrisabz tumanida, 38 tasi (8,2 %) Yakkabog` tumanida, 34 tasi (7,4 %) Shahrisabz shahrida hamda 29 tasi (6,3 %) Qarshi tumanida tashkil etildi.



### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 48 ta loyiha bo'yicha 26,6 m/lrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2020-yil yanvar-iyun oylarida 46 ta yangi ish o'rnlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rnlari soni 153,3 % ga oshdi.

|  | 2019-yil<br>yanvar-iyun | 2020-yil<br>yanvar-iyun |
|--|-------------------------|-------------------------|
| Loyihalar soni, <i>birlik</i>                | 19                      | 48                      |
| Korxonalar soni, <i>birlik</i>               | 11                      | 39                      |
| Ishlab chiqarish hajmi, <i>m/lrd. so'm</i>   | 6,9                     | 26,6                    |
| Yaratilgan yangi ish o'rnlari, <i>birlik</i> | 30                      | 46                      |

Sanoat statistikasi  
bo`limi  
Tel.: (75) 221-32-36